Qanday örnatiladi va faollaştiriladi

«Qöştirnoq» içida dastur tugmalari, qalin yozuvda sayt tugmalari.

Qisqa yöriqnoma: 2 variant

1

1-variant: botdan olingan kod bilan (eng oddiy)

1. Dasturni yuklab oling va örnating.
2. **@smartdoclabs_bot** da «LITSENZIYA» tugmasini bosing, tölab kod oling.
3. Dasturda «Sotib olish / kalitim bor» ni bosing, kodni kiriting va «Faollashtirish» ni bosing. Tayyor.


2

2-variant: sayt orqali kalit bilan


1. Dasturni yuklab oling va örnating.
2. Dasturda «Sotib olish / kalitim bor», söng «Saytga o‘tish» ni bosing.
3. Saytda kodni kiriting, çiqqan kalitni nusxalab dasturga qöying va «Faollashtirish» ni bosing.

1. Saytdan yuklab oling


Brauzerda smartdoclabs.uz saytini oçing va yuqoridagi **Loyihalar** bölimiga öting.



Yangi alifbo konvertori kartoçkasida **Oçiş** ni bosing, keyin **Windows dasturi va Word/Excel plagini** havolasini bosing. Qisqa yöl: manzil qatoriga smartdoclabs.uz/alifbo deb yozing.




Windows dasturini yuklab oliş tugmasini bosing: SmartDoc_Alifbo_Setup.exe yuklanadi. Brauzer faylni kam yuklanadigan deb ogohlantirsa, yuklanmalar röyxatida faylni saqlaşni tanlang.




2. Örnating: Windows ogohlantirişi odatiy holat

Yuklangan faylni ikki marta bosing. Kök Windows oynasi çiqişi mumkin («Windows protected your PC», rasmda rusça). Bu odatiy holat: dastur yangi va hali raqamli imzosiz, şuning uçun Windows uni tanimaydi. Faylni faqat smartdoclabs.uz dan olgan

bölsangiz davom eting: matn ostidagi **More info** havolasini bosing (rusça Windows'da «Podrobnee»).




Keyin **Run anyway** tugmasini bosing (rusça Windows'da «Vypolnit v lyubom sluçae», rasmda 1 raqami). Windows va antivirus sozlamalarini özgartiriş şart emas.




Örnatuvçi oçiladi. Ogohlantirişni öqing va «Keyingi» ni bosing.




Şartlarni öqing, «Şartlarni qabul qilaman» ni belgilang va «Keyingi» ni bosing.




Qismlarni tanlang. Windows dasturi majburiy, Word va Excel plaginini xohlasangiz olib taşlaysiz. Bitta litsenziya hammasiga yetadi. Yangi alifbo klaviaturasi ixtiyoriy (pastdagi «Klaviatura» bölimiga qarang). «Keyingi», söng «Örnatiş» ni bosing.



«Microsoft Word oçiq» yoki «Microsoft Excel oçiq» yozuvi çiqsa: hujjatingizni saqlang, şu dasturni yoping, «Orqaga» ni bosing va yana «Örnatiş» ni bosing.




«Dasturni oçiş» belgisini qoldirib, «Tugatiş» ni bosing. Keyin dastur Start menyusidan oçiladi.




3. Sinab köring

Dastur birinçi marta oçilganda ikki tugma çiqadi. Sinaş uçun «3 kun bepul sinash» ni bosing: bir marta internet kerak, 3 kun içida jami 30 ta faylgaça. Promo-kod yoki


kalitingiz bölsa, «Sotib olish / kalitim bor» ni bosing va keyingi bölimga öting.



Foydalaniş şartlarini öqib, «Qabul qilaman» ni bosing.



Dastur tayyor. Faylni oynaga sudrab taşlang va «Ögiriş» ni bosing. Pastda sinovdan qança qolgani körinadi.




4. Promo-kod yoki kalit bilan faollaştiring

Kod oliş: **@smartdoclabs_bot** da «LITSENZIYA» tugmasini bosing va şartlarni öqing. Söng «Doimiy litsenziya olaman» tugmasini bosing: bot karta raqami va summani körsatadi. Tölab, çek rasmini botga yuboring: çek tekşirilgaç (odatda 24 soat içida) kod şu botga keladi.


1–variant (eng oddiy): «Sotib olish / kalitim bor» ni bosing, botdan olgan kodingizni «Litsenziya kaliti, şaxsiy kod yoki bepul kod» maydoniga kiriting va «Faollashtirish» ni

bosing. Tayyor: kalit oynada körsatiladi va kompyuterda saqlanadi. Saytga ötiş şart emas.


2–variant (sayt orqali kalit): «Sotib olish / kalitim bor» oynasida «Saytga o‘tish» ni bosing. Sayt qurilma kodi bilan oçiladi. Kalitingiz tayyor bölsa, kalitni qöyiş qadamiga öting.



Saytda promo-kodni kiriting va **Tekşiriş** ni bosing, rozilik belgisini qöyib **Faollaştiriş** ni bosing.



Kalit çiqadi. **Nusxa oliş** ni bosing va kalitni saqlab qöying: u botga va çatga yuborilmaydi.



Dasturga qayting, kalitni qöying va «Faollashtirish» ni bosing. Tayyor: dastur va plagin işlaydi.



5. Windows dasturida fayllarni ögiring


Dasturni Start menyusidan oçing. Yuqorida «Manba» qatorida «Avto», «Natija» qatorida «Yangi lotin» tanlangan bölsin: dastur kirill va eski lotin yozuvini özi aniqlaydi.

Word (.docx), Excel (.xlsx), PowerPoint (.pptx) yoki matn faylini oynaga sudrab taşlang yoki «Fayl tanlaş» ni bosing, söng «Ögiriş (F5)» ni bosing. «Natija joyi» da «Asl fayl

yonida» tanlangan bölsa, natija asl fayl yonida, nomiga _yangi_lotin qöşilgan alohida fayl bölib saqlanadi. Asl fayl özgarmaydi.

6. Word: bir tugmada


Word'da yuqoridagi «Alifbo» bölimini oçing (1). «1. Bir tugmada» guruhida kerakli tugmani bosing (2): «Yangi lotinga», «Eski lotinga» yoki uçinçi, kirill yozuviga ötkazuvçi tugma (lentada kirill harflarida yozilgan). Hujjat qaysi alifboda yozilgani özi aniqlanadi, manbani tanlaş şart emas. Rusça va inglizça matn tegilmaydi.



Matn belgilangan bölsa, faqat öşa qism ögiriladi; belgilanmagan bölsa, butun hujjat (kolontitul, izoh va yozuv maydonlari bilan) ögiriladi. Natija yoqmasa, Ctrl+Z bilan qaytaring. Manba va natijani özingiz tanlamoqçi bölsangiz, «Qo'shimcha» guruhidagi «Aniq yo'nalish» menyusida 6 ta yönaliş bor.

7. Word: yozayotganda (jonli rejim)

Yozayotgan paytda ögiriş uçun «2. Yozayotganda (avto)» guruhida «Qaysi alifboga o'tsin» röyxatidan alifboni tanlang (1): «Yangi lotin», «Eski lotin» yoki kirill (röyxatda kirill harflarida yozilgan). Ostida misol körinadi: `Toshkent → Toşkent` . Söng «Jonli rejim» tugmasini bosing (2): tugmada «Jonli rejim: YOQILGAN» yozuvi çiqadi.




Özingiz örgangan alifboda yozavering: yozgan sözingiz har 2 soniyada tanlangan alifboga ögiriladi; yozişni töxtatsangiz, oxirgi söz ham 2 soniyadan keyin ögiriladi. «Bir tugmada» guruhidagi boşqa alifbo tugmasini bossangiz, jonli rejim özi öçadi. Öçiriş uçun «Jonli rejim» tugmasini yana bosing.

8. Excel'da ögiring

Excel'da «Alifbo» bölimini oçing (1). Kataklarni belgilab, «1. Bir tugmada (belgilangan kataklar)» guruhida «Yangi lotinga», «Eski lotinga» yoki kirillga ötkazuvçi uçinçi tugmani bosing (2). Butun varaq yoki fayl uçun «2. Butun varaq yoki kitob» guruhida

«Yo‘nalish» röyxatidan yönalişni tanlang va «Varaqni o‘girish» yoki «Kitobni o‘girish» ni bosing (3). Formulalar, sonlar va sanalarga tegilmaydi; bekor qiliş: Ctrl+Z.



Natijani tekşiring: ism-familiya, atama va qisqartmalarni közdan keçiring. Kirill yozuvidagi rusça söz ham lotinga ötib qolişi mumkin. Muhim hujjatning asl nusxasini saqlab qöying.

9. Klaviatura: ikki variant, Win + Probel, öng Alt

Klaviatura ixtiyoriy. Örnatuvçining qismlar sahifasida «Yangi alifbo klaviaturasi, 2 variant» ni belgilang: faqat şu qism uçun bir marta administrator ruxsati söraladi (Windows oynasida **Ha** ni bosing). Rad etsangiz, dastur va plaginlar baribir örnatiladi. Belgi odatda qöyilgan böladi (eski versiya ustidan yangilaganda ham); avval klaviaturasiz örnatgan bölsangiz, qöyilmagan bölişi mumkin: kerak bölsa, qölda belgilang.


Ikki raskladka örnatiladi. 1–variant «Özbek yangi lotin (SmartDoc)»: [= Ö,] = Ğ, ; = Ş, ' = Ç (; va : belgilari \ tugmasiga, ' va " Esc ostidagi tugmaga köçgan). 2–variant «Özbek yangi lotin 2 (SmartDoc)»: [= Ö,] = Ğ, \ = Ş, Esc ostidagi tugma = Ç; qolgan hamma tugma inglizça joyida.



Yoqiş: **Win + Probel** ni bosing va röyxatdan kerakli raskladkani tanlang (ekran pastidagi til belgisidan ham böladi); qaytiş uçun yana **Win + Probel**. Ikkala variantda ham **öng Alt** + O / G / S / C → ö ğ ş ç; boş harf uçun Şift yoki Caps Lock. Sxema Start menyusida: «Yangi alifbo klaviaturasi». Klaviatura faqat 64–bitli (x64) Windows uçun; ARM protsessorli kompyuterda örnatilmaydi.

10. Kompyuter almaştiriş, öçiriş, savollar

Kompyuter almaştiriş: eski kompyuterda «Haqida», söng «Bu kompyuterdan o‘chirish» ni bosing (internet kerak), keyin kalitni yangi kompyuterda kiriting. Eski kompyuter yöqolgan bölsa, Pro sahifasidagi **Barça qurilmalarni böşatiş** bölimidan foydalaning.



Dasturni olib taşlaş: Windows sozlamalarida SmartDoc Alifböni toping va öçiring. Bu litsenziyani böşatmaydi: kerak bölsa, avval «Bu kompyuterdan o‘chirish» ni bosing.

Savollar: **@smartdoclabs_bot**, 24 soat içida javob beramiz.

Köp söraladigan savollar

Mac’da işlaydimi?

Yöq, dastur va plaginlar faqat Windows uçun. Saytdagi konvertor istalgan qurilmada işlaydi.

Jonli rejim qaysi alifboga ögiradi?

«Qaysi alifboga o‘tsin» röyxatida tanlangan alifboga: «Yangi lotin», «Eski lotin» yoki kirill. Tanlov eslab qolinadi. «Bir tugmada» guruhidagi boşqa alifbo tugmasini bossangiz, jonli rejim öçadi.

Klaviatura administrator ruxsatini söraydimi?

Ha, faqat klaviatura qismi uçun: örnatişda bir marta söraladi, olib taşlaşda ham söraladi. Dastur va Word/Excel plaginlari administrator ruxsatisiz örnatiladi.